



XX ASRNING 30-YILLARIDA O‘ZBEK ADABIY
TANQIDCHILARI IJODI

Oqila Ahmadjonova

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)

Gulxumor Jurayeva

*Farg‘ona davlat universiteti filologiya fakulteti o‘zbek tili yo‘nalishi 4-kurs
talabasi*

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada XX asrning 30-yillarida o‘zbek adabiy tanqidchiligi va uning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Ushbu davrda adabiy tanqidning shakllanishi, uning ijtimoiy-siyosiy muhit bilan bog‘liqligi yoritib beriladi. Shuningdek, Abdulhamid Cho‘lponning adabiy-estetik qarashlari alohida o‘rganilib, uning “Adabiyot nadur” maqolasi misolida adabiyotning mohiyati, vazifasi va jamiyatdagi o‘rni tahlil etiladi. Maqolada adabiy tanqidning ilmiy va estetik jihatlar hamda uning o‘zbek adabiyoti rivojidadagi ahamiyati asoslab beriladi.

KALIT SO‘ZLAR: adabiy tanqid, o‘zbek adabiyoti, XX asr 30-yillari, Cho‘lpon, maqola estetik qarashlar, mafkura, badiiylik, tanqidchilik, adabiy jarayon

ABSTRACT. This article analyzes the literary criticism of Uzbek intellectuals during the 1930s. It examines the formation of literary criticism in connection with the socio-political environment of the time. Special attention is given to the aesthetic and literary views of Abdulhamid Cho‘lpon, illustrated through his article Adabiyot nadur, highlighting the essence, function, and societal role of literature. The study also considers the scientific and aesthetic aspects of literary criticism and its significance in the development of Uzbek literature.

KEYWORDS: literary criticism, Uzbek literature, 1930s, Cho‘lpon, aesthetic views, ideology, literary value, critics, literary process

АННОТАЦИЯ. В данной статье анализируется творчество узбекских литературных критиков 30-х годов XX века и его характерные особенности. Освещается процесс формирования литературной критики в этот период, а



также её связь с социально-политической средой. Кроме того, отдельно рассматриваются литературно-эстетические взгляды Абдулхамида Чулпана, и на примере его статьи «Что такое литература» («Adabiyot nadir») анализируются сущность литературы, её функции и роль в обществе. В статье также обосновываются научные и эстетические аспекты литературной критики, а также её значение в развитии узбекской литературы.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: литературная критика, узбекская литература, 30-е годы XX века, Чулпан, эстетические взгляды, идеология, художественность, критика, литературный процесс.

KIRISH

XX asrning 30-yillari o'zbek adabiyoti tarixida tub burilishlar davri sifatida namoyon bo'ladi. Bu davrda adabiyot nafaqat estetik hodisa, balki jamiyatni shakllantiruvchi muhim mafkuraviy vositaga aylangan edi. Shu sababli adabiy jarayonni tahlil qilish, unga baho berish va yo'naltirish vazifasi adabiy tanqid zimmasiga yuklandi.

30-yillarda o'zbek adabiy tanqidchilari ijodi o'ziga xos murakkablik bilan ajralib turadi. Ular bir tomondan adabiy asarlarning badiiy jihatlarini tahlil qilishga harakat qilgan bo'lsalar, ikkinchi tomondan davr talabi asosida ularni mafkuraviy mezonlar asosida baholashga majbur edilar. Natijada bu davr tanqidchiligi ham ilmiy, ham siyosiy xususiyatlarni o'zida mujassam etgan holda rivojlandi. Mazkur davrda o'zbek adabiy tanqidchiligining rivojiga ko'plab yozuvchi va adabiyotshunoslar hissa qo'shdilar. Jumladan: Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Hamid Olimjon, G'afur G'ulom, Mirtemir, Abdulla Qahhor kabi ijodkorlar ushbu ilmiy adabiy muhit vakillaridan edi. Ularning tanqidiy maqolalari o'zbek adabiy jarayonining rivojlanishida muhim rol o'ynagan. Tanqidchilar badiiy asarlarni tahlil qilish orqali yozuvchilarning ijodiy izlanishlarini baholaganlar va adabiy jarayonning yo'nalishini belgilashga harakat qilganlar. Mazkur davrda faoliyat yuritgan ijodkorlar orasida Abdulhamid Cho'lpon alohida o'rin egallaydi. Uning adabiyot haqidagi qarashlari, ayniqsa "Adabiyot nadur"



maqolasida ilgari surilgan fikrlar o'zbek adabiy tanqidining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism

Abdulhamid Cho'lpon jadid adabiyotining yirik namoyandasi, shoir, yozuvchi, dramaturg va tarjimon bo'lib u o'z asarlarida millat uyg'onishi, ozodlik, ma'rifat va inson erkinligi g'oyalarini ilgari surgan. Abdulhamid Cho'lpon o'zbek adabiyoti tarixida nafaqat shoir va yozuvchi, balki chuqur fikrlovchi adabiyotshunos, munaqqid sifatida ham muhim o'rin tutadi. U 1914–1937-yillar oralig'ida 60 dan ortiq adabiy-tanqidiy maqolalar yozgan. Bu maqolalarda: adabiyotning vazifasi, ijodkor mas'uliyati, milliy uyg'onish masalalari keng yoritilgan. Uning adabiyot haqidagi qarashlari o'z davri uchun yangicha va ilg'or edi. Cho'lpon adabiyotning mohiyatini tushuntirishga harakat qilib, uning inson hayotidagi o'rnini yuqori baholaydi. Unga ko'ra, adabiyot inson qalbining eng nozik kechinmalarini ifoda etuvchi kuchli vositadir.

Cho'lponning "Adabiyot nadur?" maqolasi o'zbek adabiy-estetik tafakkurining eng muhim manbalaridan biridir. Ushbu maqola "Cho'lponning birinchi tanqidiy asari «Adabiyot nadur?» degan maqola bo'lib, «Sadoi Turkiston» gazetasida 1914 yil 4 iyun kuni e'lon qilingan. Bu maqola, umuman, Cho'lponning matbuot yuzini ko'rgan ilk asarlaridan biridir. Cho'lpon uni 16 yoshida yozgan. Maqola shaklan juda ixcham bo'lsa-da, mazmunan g'oyat teran. Undagi fikrlar va mulohazalar shu qadar pishiqlik, 16 yashar o'smirning shunchalik tiyraklik bilan qalam tebratganiga qoyil qolmay ilojingiz yo'q"¹-deydi Ozod Sharafiddinov o'zinig "Adabiyot yashasa –millat yashar" maqolasida. Cho'lpon maqolada adabiyotning mohiyatini juda obrazli tarzda tushuntiradi. U shunday yozadi: "Adabiyot har bir millatning hisli ko'ngul tarixining eng qorong'u xonalarida maishat (tirikchilik)ning ketishiga qarab har xil tusda va rangda yetishgan, fayzli til birla taqdir etula olmaydirg'on bir guldir."²

¹ Sharafiddinov Ozod "Adabiyot yashasa-millat yashar" -Toshkent, «Cho'lpon» nashriyoti, 1994.

² Abdulhamid Cho'lpon "Adabiyot nadir" maqolasi



Bu parchada adabiyotning kelib chiqishi va mohiyati obrazli tarzda ochib beriladi. Muallif adabiyotni millatning ichki ruhiy hayoti — “hisli ko‘ngul tarixi” bilan bog‘laydi. Ya’ni adabiyot insonlarning yashash tarzi, turmush sharoiti va tarixiy muhitiga qarab shakllanadi. “Eng qorong‘u xonalar” iborasi esa inson qalbining yashirin, chuqur va murakkab qatlamlarini ifodalaydi. Adabiyotning “har xil tusda va rangda yetishishi” uning bir xil emasligini, balki turli millatlar, davrlar va ijtimoiy sharoitlarga qarab rang-barang bo‘lishini anglatadi. Bu orqali Cho‘lpon adabiyotning universal emas, balki muhitga bog‘liq holda rivojlanishini ta’kidlaydi.

Shuningdek, adabiyot “bir gul”ga o‘xshatiladi. Bu metafora orqali adabiyotning nafisligi, go‘zalligi va inson qalbiga estetik zavq berishi ifodalanadi. “Fayzli til birla taqdir etula olmaydirg‘on” degan ifoda esa adabiyotning juda nozik, chuqur va so‘z bilan to‘liq ifodalab bo‘lmaydigan darajada murakkab ekanini bildiradi.

“Adabiyot yashasa — millat yashar”.³ Bu qisqa, lekin nihoyatda chuqur mazmunli fikr orqali muallif adabiyot va millat taqdirini bir-biriga chambarchas bog‘laydi. Ya’ni, adabiyot millatning ruhiy hayotini ifodalaydi, agar adabiyot rivojlansa, millat ham ma’naviy jihatdan yuksaladi. Bu yerda Cho‘lpon adabiyotni oddiy san’at turi sifatida emas, balki millatning “ruhi” sifatida talqin qiladi. Bu g‘oya jadid adabiyotining asosiy prinsiplaridan biridir.

“Adabiyot chin ma’nosi ila o‘lgan, so‘ngan qaralgan, o‘chgan, yarador ko‘ngilga ruh bermak uchun, faqat vujudimizga emas, qonlarimizga qadar singishgan qora balchiqlarni tozalaydirg‘on, o‘tkur yurak kirlarini yuvadurg‘on toza ma’rifat suvi, xiralashgan oynalarimizni yorug‘ va ravshan qiladirdg‘on, chang va tuprog‘lar to‘lgan ko‘zlarimizni artub tozalaydirg‘on buloq suvi bo‘lg‘onlikdan bizga g‘oyat kerakdir”.⁴

Bu parchada muallif adabiyotning inson hayotidagi o‘rni va ahamiyatini juda kuchli badiiy obrazlar orqali ochib beradi. Adabiyot “toza ma’rifat suvi” va “buloq

³ Abdulhamid Cho‘lpon “Adabiyot nadir” maqolasi

⁴ Abdulhamid Cho‘lpon “Adabiyot nadir” maqolasi



suvi”ga o‘xshatiladi. Bu o‘xshatishlar orqali adabiyotning poklovchi, yangilovchi va hayotbaxsh xususiyati ta’kidlanadi. Suv qanday qilib tanani tozalab, hayot uchun zarur bo‘lsa, adabiyot ham insonning ruhiy dunyosini tozalaydi va unga yangi kuch bag‘ishlaydi. Parchada insonning ruhiy holati “o‘lgan”, “so‘ngan”, “yarador ko‘ngil” kabi ifodalar bilan tasvirlanadi. Bu iboralar insonning tushkunlik, iztirob yoki ma’naviy sustlik holatini anglatadi. Adabiyot esa ana shu holatdan chiqaruvchi, insonni ichki jihatdan tiklovchi vosita sifatida ko‘rsatiladi. Shuningdek, “qora balchiqlar”, “yurak kirlari”, “xiralashgan oynalar”, “chang bosgan ko‘zlar” kabi obrazlar insonning ichki va tashqi idroki turli salbiy ta’sirlar bilan xiralashganini bildiradi. Adabiyot esa ana shu xiralikni yo‘qotib, insonning fikrini ravshanlashtiradi, ongini ochadi va dunyoni to‘g‘ri anglashiga yordam beradi.

“Endi, ey, qardoshlar! Adabiyot o‘quylik. Adiblar yetishdirayluk, «adabiyot kechalari» yasayluk. Ruh, his, tuyg‘u, fikr, ong va o‘y olayluk, bilayluk. Agarda «bayoz» va bema’ni bir-ikki dona kitoblar ila qolsak, mahvu inqiroziy bo‘lurmiz.”⁵

Bu parchada muallif millatni adabiyotga e’tibor qaratishga, ma’naviy uyg‘onishga chaqiradi. “Ey, qardoshlar!” degan murojaat orqali u o‘quvchiga bevosita ta’sir qilish, uni harakatga undash maqsadini ko‘zlaydi. Bu oddiy fikr emas, balki jamiyatga qaratilgan kuchli da’vatdir.

Cho‘lpon adabiyot o‘qishni, adiblar yetishtirishni va “adabiyot kechalari” tashkil etishni muhim vazifa sifatida ko‘rsatadi. Bu orqali u nafaqat individual o‘qish, balki jamiyatda adabiy muhit yaratish zarurligini ta’kidlaydi. Demak, adabiyot rivoji uchun faqat kitob o‘qish emas, balki ijodkorlar va adabiy muhit ham muhim hisoblanadi.

“Ruh, his, tuyg‘u, fikr, ong va o‘y olayluk” jumlasida adabiyotning inson shaxsiga ta’sirini ifodalaydi. Ya’ni adabiyot insonning hissiyotini boyitadi, fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va ongini kengaytiradi. Bu jihatdan adabiyot insonni har tomonlama kamolga yetkazuvchi vosita sifatida ko‘rsatiladi.

⁵ Abdulhamid Cho‘lpon “Adabiyot nadir” maqolasi



Parchaning oxirida muallif “bayoz” va mazmunsiz kitoblar bilan cheklanib qolishni tanqid qiladi. Agar jamiyat faqat yuzaki adabiyot bilan kifoyalansa, u ma’naviy va fikriy jihatdan orqada qolib, inqirozga yuz tutadi. “Mahvu inqiroziy bo‘lurmiz” degan ibora ana shu ogohlantirishni bildiradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, XX asrning 30-yillarida o‘zbek adabiy tanqidchiligi murakkab tarixiy sharoitda rivojlandi va bu davrda adabiyotning jamiyatdagi o‘rni, uning g‘oyaviy va ma’naviy vazifalari keng muhokama qilindi. Mazkur davr tanqidchiligi milliy adabiyotning shakllanishi va rivojlanishida muhim bosqich bo‘lib xizmat qildi. Ushbu mavzu doirasida Abdulhamid Cho‘lpon ijodi alohida ahamiyat kasb etadi. Uning “Adabiyot nadur” maqolasi adabiyotning mohiyatini chuqur tahlil qilib, uni millat ruhining ifodasi, inson qalbini poklovchi va tafakkurni rivojlantiruvchi kuch sifatida talqin etadi. Cho‘lpon adabiyotni millatning ma’naviy hayoti bilan uzviy bog‘liq holda ko‘rib, uning rivoji millat taraqqiyoti uchun zarurligini ta’kidlaydi. Maqolada adabiyotning nafaqat individual, balki ijtimoiy ahamiyati ham ochib berildi. Adabiy muhit yaratish, adiblar yetishtirish va adabiyotga e’tibor qaratish millat taraqqiyoti uchun muhim omil ekani ta’kidlandi. Aksincha, yuzaki va mazmunsiz adabiyot bilan cheklanib qolish millatning fikriy sustlashuvi va ma’naviy inqiroziga olib kelishi mumkinligi ko‘rsatildi.

Umuman olganda, 30-yillardagi o‘zbek adabiy tanqidi va Cho‘lpon qarashlari adabiyotning faqat estetik hodisa emas, balki millatning ruhiy va ijtimoiy taraqqiyotini belgilovchi muhim omil ekanini ko‘rsatadi. Shu jihatdan, adabiyotga e’tibor va uning rivoji milliy o‘zlikni saqlash hamda jamiyatni ma’naviy yuksaltirishning asosiy shartlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdulhamid Cho‘lpon “Adabiyot nadur” maqolasi
2. O‘zbek adabiy tanqidchiligi tarixi Toshkent-2012
3. Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon. Tanlangan asarlar. 4jildlik: Toshkent: Akademnashr, 2016. -266 b
4. Sharafiddinov Ozod “Cho‘lponni anglash” T.:Xazina,1994



5. Xurshid Davron kutibxonasi. Abdulhamid Cho'lpon "Adabiyot nadir"
6. Sharafiddinov Ozod "Adabiyot yashasa-millat yashar"-Toshkent "Cho'lpon" nashriyoti 1994